



# IQTISOSLASHGAN MADANIYAT MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA MANZARA JANIRINI O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Gadoyev Ibrohim Niyozovich**

Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbekiston.

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi o'qituvchisi. [ibroximgadoyev@mail.ru](mailto:ibroximgadoyev@mail.ru),

+998973216272

**Mardiyeva Muxlisa Zokir qizi**

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lif yo'naliishi 2-kurs talabasi.

**ANNOTATSIYA:** Maqolada iqtisoslashgan madaniyat maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlarida manzara janirini o'qitishning nazariy asoslari, tasviriy san'at darslarida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, shu orqali o'quvchilar ongiga manzara janrini o'qitishning usullari hamda tasviriy san'atga oid umumiy tushunchalar, foydali usullar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, janr, kompozitsiya, qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik, rassom o'qituvchi.

**ABSTRACT:** In the article, the theoretical basis of teaching the landscape genre in the visual arts classes in specialized culture schools, the use of modern innovative technologies in the visual arts lessons, thereby the methods of teaching the landscape genre to the minds of students, and general information about the visual arts concepts, useful methods are discussed.

**Key words:** Fine art, genre, composition, pencil drawing, painting and sculpture, artist teacher.

## KIRISH.

Yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san'at, xususan qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etadi. Bu esa pedagog, olim va rassomlar zimmasiga yuksak mas'uliyatni yuklaydi. Jamiat va davlat o'zligini anglagan, vatanparvarlik tuyg'usi bilan millat, xalq manfaatlari, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun mas'uliyatli, ilmiy bilim, mehnat va kasb-kor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallagan, ruhiy sog'lom, jismonan yetuk, umuminsoniy va milliy xulq-atvor normalarini o'z ongi va faoliyatida mujassam etgan ma'naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan manfaatdor bo'ladi.

**Ilmiy izlanishlar va uslublar.** Rangtasvir ta'limi yangilash, rangtasvir fanida sodir bo'lgan o'zgarishlar mohiyatini anglagan holda, ularga xos xususiyatlarni hisobga olib amalga oshirish kutilgan natijalarni beradi. Hozirgi zamon talabi avvalo, mustaqillik millatimiz rangtasvir faniga xos bo'lgan yetakchi yo'naliislarni belgilab, bu fanning taraqqiyot tendentsiyalarini badiiy ijodiy jihatdan asoslab berdi. Yangilangan tafakkur mevasi bo'lgan rangtasvir fani, fanlar orasida qanday o'rinn tutadi va uni yo'lga qo'yishning



badiiy ijodiy asoslari nimalardan iborat bo‘lishi kerak degan savolga shundagina to‘g‘ri javob topish mumkin bo‘ladi. Chunki ijtimoiy o‘zgarishlarning rangtasvir fanidagi yangilanishlar ta’limni tashkil etishida to‘liq aks etishi aniq.

Mamlakatimizda ta’lim tizimida islohatlarni bosqichma-bosqich badiiy ta’limga uning moddiy va ma’naviy bazasini mustahkamlashga ham katta ahamiyat beriladi. Mamlakatimizda ta’lim muassasasida tasviri san’at orqali bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish, milliy madaniy merosini o‘rganishlari hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishlari uchun ko‘maklashadi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimiz tomonidan tasviri san’at va xalq amaliy san’atiga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaytirildi. Hozirgi kungacha yillar davomida rang tasvirchi rassomlar, haykaltaroshlar, grafik rassomlar, xalq amaliy san’ati ustalari tomonidan birmuncha san’at asarlari respublikamizning turli joylarida qad ko‘tarib chiroy bag‘ishlab turibdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni inteliktual va manaviy ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzlusiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs-fuqoroni shakllantirishni nazarda tutadi. Ijodiy qobilyatni namayon etishda, intelektual jihatdan rivojlantirish kasbi bo‘yicha mehnat qilish huquqini ro‘yobga chiqadi.

**Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi.** Iqtisoslashtirilgan madaniyat maktablarida tasviri san’at faniga qo‘yilgan hozirgi davlat talabi uning pedagogik psixologik jihatlarini tubdan yangilash o‘quvchilarga beriladigan ta’lim-tarbiya ish yangi sifat pog‘onasiga ko‘tarish shuningdek jahon andozalariga mos kadrlarni tayyorlashni vazifa qilib qo‘ymoqda.

Iqtisoslashgan san’at maktablarida «tasviri san’at» o‘quv predmeti talaba o‘quvchilarining har tomonlama uyg‘un rivojlanishiga hizmat qilib, u bolalarda ijodiy qobilyatlarini va badiiy didini o‘stirishda va ularning ahloqiy jihatdan tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviri san’at darslarida o‘quvchilarning o‘quv faniga qiziqishlarini oshirish dars samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Tasviri san’at o‘quvchilarining ijodiy hissiyot manbai bo‘lmog‘i lozim va ularni qiziqishlarini oshirish kerak bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda biz o‘z o‘quvchilarimizda ulardagi bilim va malakasiga asoslanib ularni har qanday ishga ijobjiy munosabatda bo‘lishida to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq berishimiz zarur.

O‘quvchi talabalarimizning bu darajada rivojlanishida ahloqiy tarbiyaning vositalaridan biri-tasviri san’at o‘quv darsligining roli juda kattadir. Tasviri san’at darslarida o‘quvchi talabalarimizning ahloqiy his-tuyg‘ularini, badiiy faoliyat va san’atga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda juda katta yordam beradi.

Ixtisoslashgan maktablarda, manzara ishslashda kompozitsiyaning o‘ziga xos tomonlari mavjud. Hozirgi kunda iqtisoslashgan maktablarda barcha fanlar qatori tasviri san’at fanining o‘qitilishida ham bir qator yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu davrda mamlakatimizning deyarli barcha oily o‘quv yurtlarida rassom o‘qituvchilar



tayyorlanmoqda. Mustaqillik yillarda iqtisoslashgan maktablarida tasviriylar san'at ta'limi konsepsiysi, davlat ta'lim standartlari, dastur va darsliklar, metodik qo'llanmalar va ilmiy metodik tasvirlar yaratildi. So'zsiz ular iqtisoslashgan maktablarda tasviriylar san'atni o'qitilishini yaxshilashda ijobiy rol o'yamoqda.

Tasviriylar san'atdan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida ko'rsatilishicha o'quvchilarni borliqdagi, idrok etish va qadrlashga o'rgatish bosh vazifa qilib belgilangan.

Ikkinchidan, tasviriylar san'at mashg'ulotlarining turlari hisoblangan qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya bo'limlarining birontasi ham tabiatni o'rganish muommosini chetlab o'tmaydi, ularda tabiatni idrok etish asosiy o'rinni egallaydi.

Xususan, boshlang'ich sinflardagi dastur mazmuniga bo'lgan majburiy minimum talablar qismida asosan «Tabiatning turli fasllaridagi ko'rinishlar, o'zgarishlar, undagi xodisa haqida tasavvurga ega bo'lish hamda ularni tasvirlay olish tabiatdagi jonzot va narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchamlari, o'lcham nisbatlarini ma'lum miqdorda tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lish» ta'kidlangan.

Manzara rantasvirida har bir rang surtmasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Manzarani professional darajada mahorat bilan ishslash undagi ranglar munosabatini real holatini naturada ko'rilganidek tasvirlay olish bilan belgilanadi. Manzara ishslash jarayonida ranglarning o'zaro munosabatini his qilish va aks ettirish malakasini hosil qilish uchun manzara ko'rinishlarining yorug'-soya ta'siridagi o'zgarishlarini zaruriy plandagi ko'rinishlarda kuzatish, o'zaro qiyoslash yaxshi samara beradi. Naturadagi manzaralarning ko'rinishi ularning yoritilish darajasi va boshqa manzaraning soyalari ta'sirida ham o'zgaradi. Tongda natura sariqoltin rangida ko'rindi, oy nurida kulrang moviy rangga, bulutli kunda esa to'qroq kumush rangiga kiradi. O'rmonda hamma narsa iliq yashil rangga moyil bo'ladi.

Manzara chizish jarayonida rangtasvirning plastik vositalaridan ham foydalilanadi. Buning uchun naturadagi ranglar dinamikasini diqqat bilan kuzatish zarur. Shundagina yorug' va soya dog'larining kartina bo'ylab tarqalishidagi tabiiylikka, asarning jonli va ta'sirli chiqishiga erishish mumkin bo'ladi.

Tasviriylar san'atda tevarak-atrofni hayotdagi voqealari va hodisalarini bevosa kuzatish asosida olingan tasurotlar, tushunchalar hamda atrof-muhitga nisbatan estetik munosabatda bo'lishi bilan bog'liqidir. Tasviriylar san'atdan dars va darsdan tashqari ishlar bo'yicha ta'lim mazmuniga murojat etadigan bo'lsak unda tabiatni o'rganish masalasi quyidagi tahlillar asosida ko'zga tashlanadi:

1. Bevosita tabiatni o'rganishga bag'ishlangan mavzular.
2. Tabiatni o'rtacha hajmda o'rganishga qaratilgan mavzular.
3. Tabiatni qisman o'rganishga bag'ishlangan mavzular.

Tasviriylar san'at asarlarida asosiy obekt sifatida aks ettirilishi asosan tasviriylar san'atning manzara, natyurmort, animal, marina janirlarida o'z ifodasini topadi. Ikkinchi holda esa bu masala turmush, tarixiy, batal portret ko'zga tashlanadi. Manzara ishslash jarayonida mavzu asosida amaliy mashg'ulotlarni bajarish quydagi vazifalardan iborat:



Iqtisoslashgan maktab o‘quvchilariga manzara ishslashda shakli, rangi va boshqa sifatlarini hisobga olgan holda va undagi xodisalar haqidagi go‘zallikni tushuntirish kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari ularda manzara chizish jarayoniga bog‘liq bo‘igan kuzatishning dastlabki malakalarini rivojlantirish, manzara chizish uchun nihoyatda qiziqarli syujet joyini tanlab bilishga o‘rgatish kerak. Undagi asosiy narsani farqlagan holda qog‘ozga joylashtirish, perispektivadagi ufq chizig‘i, ko‘rish nuqtasi va boshqa tushunchalarga ega bo‘lishi, manzaradagi ranglar bilan ishslash jarayonida to‘g‘ri ifodalay olishi, matoga o‘sha joyini qanday holatini, daraxt va o‘simliklarga yorug‘lik tushishi, yoki erta tongda ranglarning tiniqligini ifodalay olishi, oqshom paytidagi tabiat manzarasini ko‘rinishini ko‘rsata bilish kerak.

Manzara kompozitsiya ustida ishslashda, perispektiva va rang jihatidan to‘g‘ri tanlanganligi ijodiy tafakkur, tasavvurga va rassomning fantaziyasi bilan boyitilgan bo‘lishi kerak. Olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bizni o‘rab olgan go‘zal tabiat, borliqni tashkil etadi. Agar rassom hayotidagi narsa va hodisalarini kuzatishga yetarli etibor berar ekan, uning yaratgan asari mazmunan boy va badiiy jihatdan yuksak bo‘ladi. Kuzatishni obektdagi narsalarning xomaki rasmini ishslash bilan ham qo‘shib olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kompozitsiya qonuniyatlarini bilish, simmetriya va muvozanat masalalari ham surat ta’sirchanligini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Tasvirdagi kompozisiyasining ta’sirchanligini oshirishda uning o‘lchamini to‘g‘ri aniqlash kerak. Asarning shakli va o‘lchami rassomning g‘oyasi, asar mavzusi va mazmuniga ham bog‘liq. Manzara chizish jarayonida kompozisiya va perispektivani roli muhimligi kabi, rang ham muhimdir. Rangtasvir mazmuni va g‘oyasining to‘la ochilishiga, uning emosional ta’sirini kuchaytirishga, shuningdek, kompozitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Rangning asosiy xususiyatlari uning yorqinligini (och-to‘qligi), tusi va to‘yinganligi bilan belgilanadi.

Manzara chizish jarayonida bo‘yoqlar bilan ishslash murakkab jarayon. Bunda bo‘yoqlar bilan ishslash to‘g‘ri tashkil etish, metodik tavsiyalar, rangshunoslik bo‘yicha zarur bilam va ko‘nikmalarga ega bo‘lish kerak. Manzara chizish jarayonida ranglar bosqichma-bosqich terib boriladi. Ranglarning och-to‘qligi, yorug‘-soya va rang tuslari tushayotgan yorug‘lik ta’sirida bo‘lida. Bu yorug‘likni ta’siri uzoqlashgan sari ranglar ocharib boradi. Yaqinlashgan sari esa rang to‘qlashib, yorqinlashib boradi. Ranglar fasllarga qarab och va to‘q tusda bo‘ladi. Ranglar tabiatda issiq va sovuq tus ko‘rinishiga faqat yashil bo‘yoq bilan bo‘yash noto‘g‘ridir. Daraxt rangi yorug‘likning tasirida, yon atrofdagi narsalarning ta’sirida o‘zgaradi. Shuning uchun ham uni o‘ziga o‘xshatish uchun turli ranglardan foydalanish kerak bo‘ladi.

Quydagi tavsiyalar asosida manzara kompozitsiyasi ishlansa, tabiatning ko‘z ilg‘amas go‘zalliklarini ham tasvirlash imkonli bo‘ladi.

Xaqiqiy san’at asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda tasvirlangan tabiat go‘zalliklarini ko‘rib zavqlanamiz.

## XULOSA

Manzara janirida rasm chizishning nazariy va amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy san'atga va rassom ustalarini ijodini, an'analarini o'rganishga e'tiborini jalg etish juda muhim deb hisoblaymiz. Iqtisoslashgan maktablar o'quvchilarini tasviriy san'at darslarida manzara janrida chizishni o'rgatish muommosi muhim bo'lib shu kunga qadar to'liq yechilmagan masalalardan biridir. Iqtisoslashgan maktablarda o'quvchilarni tayyorlayotgan o'quv dasturi shu kunda va davr taqazosi bilan hamda ta'lif sohasidagi tubdan o'zgarishlar natijasida bugungi kundagi talablarga yetarli darajada amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqib amaliyotga taqdim etish muhimdir.

Iqtisoslashgan maktablari o'quvchilarini badiiy rivojlanishiga zamonaviy talablarga muofiq tasviriy san'at darslarida manzara janrini o'rgatish yuzasidan bakalavir yo'nalishidagi rassom-o'qituvchilarini oily ta'lif tayyorgarligini takomillashtirish muommosi muhim o'rinni egallaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N. Abdullayev San'at tarixi. T-1987 y.
2. B. Azimova. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. T-1984y
3. B. Jabbarov. Rangshunoslikka oid ayrim atama va iboralarning izohli lug'ati. N- 2001 y
4. S.Mirdavidova. Qalamtasvir va rangtasvir asoslari o'quv qo'llanma. Tosh-2017
5. Bobonazarov S. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o'ziga xosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 114-118.
6. Шавдиров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическое образование и наука, (2), 109-110.
7. Саъдиев С. Т., Очилов З. С. ФАКТОРЫ, Влияющие на качество музыкального образования //xliii international scientific and practical conference "international scientific review of the problems and prospects of modern science and education". – 2018. – C. 110-111.
8. Niyazovich G. I. Ways of use of modern innovative technologies in fine arts classes and through the improvement of ideas of national independence to students //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 234-237.
9. Choriyevich J. S. The role of composition in increasing the spatial imagination of students and students //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 15-17.
10. Kulmuratov N. R. et al. VARIOUS ISSUES IN THE FIELD OF SETTING NONSTATIONARY DYNAMIC PROBLEMS AND ANALYZING THE WAVE STRESS STATE OF DEFORMABLE MEDIA //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 9. – C. 365-369.
11. Абдуллаев Акбар Хикматович НРАВСТВЕННОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧЕНИКОВ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО // Academy. 2021. №4 (67). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie-uchenikov-cherez-izobrazitelnoe-iskusstvo>



esteticheskoe-vospitanie-uchenikov-cherez-izobrazitelnoe-iskusstvo (дата обращения: 02.11.2023).

12. Gadoyev, I. (2020). Talabaning fazoviy tasavvurini va mantiqiy fikrlashni takomillashtirish. *Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali Hindiston. Infofaktor jurnal.*

13. Gadoyev, I. N. (2022). TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O 'QITISH METODIKASI. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(6), 203-210.

14. Gadoe, I. N. (2022, December). RANG TASVIR FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: Ibrohim Niyozovich Gadoev Navoiy davlat pedagogika instituti San'atshunoslik fakul'teti, Tasviriy sanat va muhahdislik grafukasi kafedrasи oqituvchi. In *Научно-практическая конференция*.

